

LIRIK DISKURSDA USLUBIY TROPLAR (USMON AZIM VA MUHAMMAD YUSUF ASARLARI MISOLIDA)

Nurimova Diyora Qurbon qizi

Profi university Navoiy filiali

O‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada lirik diskurs tushunchasi hamda uning mohiyati bayon qilinadi. Lirik matnlarda qo‘llaniladigan uslubiy troplar va ularni qo‘llashning pragmatik xususiyatlari yoritiladi. Usmon Azim hamda Muhammad Yusuf asarlarida qo‘llanilgan uslubiy troplar tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: trop, lirika, diskurs, matn, metonomiya, giperbola, kinoya, pragmatika.

Abstract: This article describes the concept of lyrical discourse and its essence. The stylistic tropes used in lyrical texts and the pragmatic features of their use are highlighted. The stylistic tropes used in the works of Usman Azim and Muhammad Yusuf are analysed.

Key words: trope, lyric, discourse, text, metonymy, hyperbole, irony, pragmatics.

Til jamiyatda insonlar orasidagi kommunikativ jarayonda xizmat ko‘rsatadi. Tilning bu pragmatik vazifasiga informativlik, ya’ni ma’lumot yetkazilishi deyiladi, shu bilan birga adresant va adresatning muayyan hodisaga munosabati, hissiyotlari ifodalanishiga ham bog‘liq. Bu nuqtayi nazardan nutq obrazliligini ifodalash uchun badiiy ifoda vositalaridan foydalaniladi.

Uslubiy troplarda muallif so‘zning turli ma’nolariga asoslanadi, ya’ni ko‘chim hosil qiladi. Bu vositalarda muayyan ma’noda bir-biriga o‘xshash ikki fenomen ifodalanadi, bir fenomen hisobiga butkul boshqa bir ma’no hamda ifooda namoyon bo‘ladi. Obrazli fikrlash deb ham yuritiluvchi bu jarayon insonda bolalikdayoq paydo bo‘ladi. Masalan, ninachiga pari, chumoliga mehnatkash inson, yo‘l hamda uzun irmoqlarga esa ilon izi sifatida obrazli fikrlash. Muallif ham ba’zan g‘ayrioddiy so‘zlar kombinatsiyasini yaratadi. So‘zning asl ma’nosidan boshqa metaforik o‘xshatishlatni o‘quvchi dunyoqarashiga singdiradi, hamda o‘quvchini ham o‘z tasavvur prismaida olamni ko‘rishga undaydi. Troplar vositasida muallif olam manzarasini obrazli ifodalaydi. Trop, ya’ni ko‘chimlarga lirik matnlardagi epitet, metafora, metonomiya, sinekdoxa, allegoriya, giperbola, litota, ironiya kabi tasvir vositalarini kiritishimiz mumkin.

O‘zbek tilida mavjud bo‘lgan lirik diskurslarda til sistemasining xususiy ifodasi estetik funksiyalar bilan uzviy bog‘liqlikda tahlil etiladi. Bu vazifaning to‘kis ifodalanishi muallif o‘z fikr, niyatini o‘quvchiga qanchalar jonli, tafakkur formasiga yetkazishiga imkon beradi. Estetik funksiyalar ham o‘z navbatida emotsiyonallik, ifodalilik kabi badiiy matn kategoriyalari bilan yuzaga chiqadi.

Lirik diskursda muallif muayyan obrazlar yaratadi hamda bu obrazlar vositasida o‘quvchiga ta’sir o‘tkazadi. Bu obrazlar ham insonlarga xos xususiyatlarni ifodalaydi, bu ifoda tarzini ritorik vositalar yoodamida ham formalashtiradi. “Badiiy diskursda ritorik vosiatlarning ikki muhim jihatni bordir: yozuvchi maqsadidagi niyat hamda bundan paydo bo‘lgan obrazlarni moslashtirish”.[1] Obrazlarning moslashtirilishidan maqsad, o‘quvchi bu va yana boshqa obrazda o‘ziga tanish yana bir xususiyatni kashf etadi, hayotga o‘sha obraz vositasida qaray boshlaydi, bu obrazni yozuvchining o‘quvchiga yetkazgan surati bilan tasavvur qiladi.

Metonomiya (yun. metonymia – qayta nomlash). Bir predmet, belgi, harakat nomini o‘zaro ichki yoki tashqi bog‘liqlik asosida boshqa predmet, belgi yoki harakatga nisbatan qo‘llash; shunday qo‘llash asosida bir predmet, harakat yoki belgi nomining boshqa predmet, harakat yoki belgi nomiga ko‘chishi.

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

ANDIJON ,2024

Metonimiya so‘zning yangi ma’nolari hosil bo‘lishida muhim rol o‘ynaydi. Mas, kulgi so‘zining “mazax”, “masxara” ma’nosи, samovar so‘zining “choyxona” ma’nosи metonimiya asosida hosil bo‘lgan ma’nolardir. [2] Metonimiyada assotsiativ aloqa asosida bir obyekt boshqa bir obyekt nomi bilan ifodalanadi. Odatda metonimiyanı yaratishda ashyo va u tayyorlangan predmet, muallif hamda u yaratgan asar, ma’lum zamon va makonda aloqador insonlar, muayyan jarayon hamda uning natijasi orasidagi aloqadorlik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Metaforaga o‘xhash ko‘chimning asosiy turlaridan biri sanalgan metonimiya ham so‘zning ko‘chma ma’nosiga asoslanadi. Bir-biriga o‘xhash predmet hamda uning belgilarini ifodalovchi metaforadan metonimiya ikki predmetning ichki yoki tashqi xususiyatlari orasidagi aloqadorligi bo‘lsa ham, ammo bir-biridan butkul farqlanuvchi predmetlar belgilari taqqoslanadi.

O‘ttiz-qirq yil avval **O‘zbekistonda**,

Boshqacharoq edi

Farosat, didlar. [3]

Bu yerda O‘zbekiston so‘zi orqali o‘zbek millati nazarda tutilmoxda.

Badiiy adabiyotda to‘rt asosiy ko‘chim turlaridan qo‘llanilishiga ko‘ra ikkinchi o‘rinda metonimiya turadi. Undan keying o‘rinni sinekdoxa egallaydi.

Lirik diskursda muallif obrazlilik hamda ifodalilikni orttirish uchun troplar bilan bir qatorda nutqiy figuralardan ham foydalanadi. Ijodkorning nutqiy figuralardan foydalanishining bosh sababi o‘quvchini ishontirish, yodida qoldirish hamda ta’sirlantirishdan iboratdir. Biz bunday figuralarni “ritorik vositalar” sifatida bilamiz. Muallif o‘z niyatini ifoda etishida turli argumentlardan foydalanishi o‘quvchi asar sujetiga haqiqat kabi qarashini osonlashtiradi. Adabiyotda shoir hamda yozuvchilar tomonidan bu kabi ritorik vositalar bir muncha ko‘p qo‘llaniladi. Lirik dirskursda metafora hamda metonimiyadan keyin eng ko‘p qo‘llaniladigan ritorik vosita bu kinoyadir.

Kinoya. Til birligini uning haqiqiy ma’nosiga nisbatan boshqa yoki qarama-qarshi ma’noda, kesatiq, qochiriq, piching bilan ishlatalishdan iborat ko‘chim turi. Xo‘s, siz-cha nima qilish kerak, o‘qimishli akam! – dedi kinoya bilan Yo‘lchi (Oybek). [4]

Tilshunoslikda u ironiya termini bilan ham yuritiladi. Kinoyani hosil qilishda muallifning so‘zni kontekstda aks ma’noda qo‘llashi asos bo‘lib xizmat qiladi. Metafora yozuvchining til xususiyatlari bilan ifodalansa, kinoya muallifning dunyoqarashi, uning yaratuvchanlik mahoratini ko‘rsatadi.

Bulbulzabonlaring

Xazon yopdimi,

Dunyo ularning hech

Tengin topdimi,

Muhammad Yusufing

Shoir bo‘ptimi?..

Nega yig‘lamaysan,

Ahli Andijon? [5]

Qarshilantirish (ing. oxomoron) bir-biriga qarama-qarshi so‘zlar vositasida ifodalanadigan uslubiy figuradir. U odatda sifat, ravish, ot hamda fe’llar kombinatsiyasidan hosil bo‘ladi. Qarshilantirishlar uslubiy vosita sifatida badiiy adabiyotda tazod she’riy san’atini hosil qiladi. Zidlantirishlar vositasida muallif o‘quvchida dramatik effekt hosil qiladi.

Sen - do‘zax, yonaman yo‘q gunoh uchun,

Sen – behisht, gunohim uchun bu lazzat.

Sendan ayrilmoqqa yetmaydi kuchim –

Sen – Tangrim yo‘qlagan so‘ngim - oxirat...[3]

Ikki ziddiyatni o‘quvchi ruhiga singdirmoq uchun muallif qarshilantirishdan foydalangan.

Tashbeh (o‘xshatish) bir obyektni ikkinchisiga muqoyasa qilishdan iborat. Lirik diskursda shoир va yozuvchilar bu uslubiy figuradan juda ko‘p foydalangan.

Shoirlar erta tug‘iladilar,

Bahorning to‘ng‘ichi – boychechekday.

Shoirlar armon bilan o‘ladilar,

Bahorning to‘ng‘ichi – boychechekday.

(Usmon Azim. Saylanma)

Giperbola (ing. hyperbole) muayyan tushunchani ifodalash uchun haddida ortiq bo‘rttirishdir. Lirik diskursda bu vosita badiiy effekt yaratish uchun foydalilanildi.

Usmon Azim hamda Muhammad Yusuf kabi shoirlar lirik diskursida metafora, metonimiya, sinekdoxa, ironiya, tashbeh, qarshilantirish singari uslubiy figuralardan o‘quvchiga yangi dunyo taqdim etish va bu olamga ishontirish maqsadini ko‘zlaydi.

Foydalanimgan adabiyotlar:

- 1.Seyidova A.S. Ingliz tili badiiy diskursida ifodalilik figuralari: Filol. Ilm.dok. Baku, 2014. 264-b.
- 2.Azim Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Toshkent. “O‘zbekiston milliy ensklopediyasi” nash. 63-b.
- 3.Usmon Azim. Saylanma . Toshkent. “Sharq” nash. 1995. 432 bet.
- 4.Azim Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Toshkent. “O‘zbekiston miliy ensklopediyasi” nash. 49-bet.
- 5.Muhammad Yusuf. Saylanma. Toshkent. “Sharq” nash. 2007. 367 bet.